

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

ULMASOVA OYGUL BAXTIYOROVNA

**XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK BIZNES KORXONALARINI
INNOVATION RIVOJLANTIRISH VA SAMARADORLIGINI
OSHIRISH (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.05 - Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi aftoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of philosophy (PhD)
in economical sciences**

Ulmasova Oygul Baxtiyorovna

Xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznes korxonalarini innovatsion rivojlantirish
va samaradorligini oshirish (Samarqand viloyati misolida).....3

Улмасова Ойгул Бахтиёровна

Инновационное развитие и повышение эффективности деятельности
предприятий малого бизнеса в сфере оказания услуг (на примере
Самаркандской области).....27

Ulmasova Oygul Bakhtiyorovna

Innovative development and increasing the efficiency of small businesses in the
service sector (on the example of the Samarkand region).....53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works57

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

ULMASOVA OYGUL BAXTIYOROVNA

**XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK BIZNES KORXONALARINI
INNOVATION RIVOJLANTIRISH VA SAMARADORLIGINI
OSHIRISH (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.05 - Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Iqt5354 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web – sahifasi (www.sies.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Tuxliyev Iskandar Suyunovich

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Navoiy Davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.I.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil "____" _____ kuni soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel: (99866) 233-19-84; Faks: (99866) 231-12-53, e-mail: sies_info@edu.uz.

Dissertatsiya ishi bilan Samarqand iqtisodiyot va servis institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.: (99866) 233-19-84; Faks: (99866) 231-12-53, e-mail: sies_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "____" _____ kuni tarqatildi

(2026-yil "____" _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.E.Po'latov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

Sh.O.Kuvandikov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., professor

M.T.Alimova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyoti tajribasi shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes korxonalarini innovatsion rivojlantirish ularning natijadorligini oshirish, qo'shilgan qiymat ulushini kengaytirish va barqaror bandlik yaratishning eng muhim drayverlaridan biri hisoblanadi. Xususan, raqamli platformalar, mijozga yo'naltirilgan biznes-modellar innovatsiyasi orqali kichik xizmat ko'rsatuvchi subyektlar bozor segmentlarini chuqurroq differensiyalash, narxdan ko'ra qiymatga asoslangan raqobat ustunligini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Xorijiy tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, "kichik va o'rta korxonalar barqaror iqtisodiy o'sish va inklyuziv rivojlanishni ta'minlashda hal qiluvchi o'rin tutib, innovatsiya va ish o'rinlari orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga hissa qo'shadi"¹, bu esa xizmatlar sohasida innovatsion kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning global dolzarbligini yanada kuchaytiradi. Shu nuqtai nazardan, xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes korxonalarini innovatsion rivojlantirish va samaradorligini oshirish mexanizmlarini ilmiy tadqiq etish maqsadga muvofiq bo'lib, jahon miqyosidagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan amaliy qarorlar uchun mustahkam nazariy-uslubiy asos yaratadi.

Jahon iqtisodiyoti mehnat taqsimotini shakllantirishda, xizmat ko'rsatish sohasini kichik biznes korxonalari taraqqiyotiga mos rivojlantirishda innovatsion muhit yaratishga ustuvorlik berish alohida ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, xizmatlar sohasida kichik biznesni innovatsion rivojlantirish darajasini baholash va bunda sohada kichik biznes korxonalari innovatsion samaradorlik ko'rsatgichlar tizimini shakllantirish, kichik biznes samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etish, xizmatlar bozorida kichik biznesning ahamiyatini va muhim xususiyatlarini asoslash, shuningdek, kichik biznesni innovatsion rivojlantirish bo'yicha raqamli texnologiyalar (buyumlar interneti, sun'iy intellekt, bulutli texnologiya)ga asoslangan raqamli modelini hamda "kichik biznes innovatsion rivojlantirish platformasini" shakllantirish, sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish va kelgusi taraqqiyotini belgilab olish kabi yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekiston iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes korxonalarini innovatsion rivojlantirish va ularning samaradorligini oshirish yo'nalishida tizimli ishlar belgilangan bo'lib, ular avvalo raqamli infratuzilmani kengaytirish, biznes-muhitni soddalashtirish, servis sohasi resurslarining tarkibini optimallashtirishga qaratilgan. Ayniqsa, "kichik va o'rta biznesning xalqaro bozorlarga chiqishiga imkoniyatlarni kengaytirish ... innovatsiyalar va startaplarni qo'llab-quvvatlash hamda yirik biznes bilan kooperatsiyalarni rivojlantirishning yangi instrumentlarini amaliyotga joriy etish"² vazifalari izchil amalga oshirilmoqda. Xizmatlar sohasida kichik biznesni innovatsion rivojlantirishdagi xizmatlar bozorini shakllantirish, sohada raqamli texnologiyalarga mos taraqqiyot

¹ Enaifoghe, A. Enhancing the Role and Contributions of Small and Medium Enterprises (SMEs) in a Globalized and Innovative Economy: Challenges and Opportunities. Preprints 2023, 2023051748. <https://doi.org/10.20944/preprints202305.1748.v1>.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan «O'zbekiston-2030» strategiyasi.

yo‘nalishlarini belgilash hamda kichik biznesni diversifikatsiyalash, shuningdek, xizmatlar sohasida kichik biznes taraqqiyotini belgilovchi prognoz parametrlarini ishlab chiqish kabi muammolarning mavjudligi ularni hal etish borasida chuqur ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, mazkur yo‘nalishda ko‘zlangan vazifalarni samarali amalga oshirishda xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznesni innovatsion rivojlantirish va samaradorligini oshirishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar yuqori darajada dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF- 60 son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”, 2021-yil 30-sentyabrdagi PF-6318-son “Xizmatlar sohasini qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2022-yil 21-yanvardagi PQ-10 son “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2020-yil 16-iyundagi PQ-4752-son “Xizmatlar sohasini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, hamda 2021-yil 21-apreldagi “Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo‘yicha ko‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5080 son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 27-apreldagi 246-son “Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xizmat ko‘rsatish iqtisodiyotini rivojlanishi, kichik biznesni innovatsion samaradorligini shakllantirish, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik masalalarining fundamental asoslari xorijlik olimlar, jumladan, J.M.Keyns, M.Porter, Y.A.Shumpeter, Porter M, Teisberg E, A.Pigu, P.Druker, Vieira, K.M, Abdallat W, K.X.Xaksever, B.R.Render, R.S.Rassel, R.G.Merdik, R.D.Erenberg³ xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanish xususiyatlari, kichik korxonalar faoliyati samaradorligini

³ Keyns Dj.M. Общая теория занятости, процента и денег / Пер. с англ. проф. Н.Н.Любимова, под. ред. д.е.н., проф. Л.Р.Куракова. – М.: МИЭП, 2010; Конкурентная стратегия: Майкл Портер Методика анализа отраслей и конкурентов; Пер. с англ.- 4-е изд.-М.: Альпина Паблишер, 2011. - 453 с.; Shumpeter Y. Теория экономического развития: Исследование предпринимательской прибыли, капитала, процента и цикла конъюнктуры. 2022. 978-5-9519-4092-6 Год издания: livelib.ru: <https://www.livelib.ru/book/10229575/editions>.; Porter, M and Lee, T. The Strategy That Will Fix Health Care [Internet]. *Harvard Business Review*; 2013. Available from: <https://hbr.org/2013/10/the-strategy-that-will-fix-health-care>.; Блауг М. 100 великих экономистов до Кейнса/М.Блауг, А.Пигу, С.Артур. Санкт-Петербург: Экономикс, 2008. 352 с.; Druker P. Бизнес и инновации [текст] / р. Друкер: Пер. с англ. – М.: Вильямс, 2007. - 350 С.; Vieira, K.M., & Ravanella, R.P. (2024). PUBLICSERV: Quality assessment scale for public services. *International Journal of Consumer Studies*, 48(4), e13066.; Abdallat, W. (2016). Evaluation of E-Government Services Quality: A Business Perspective (Doctoral dissertation, Brunel University London).; Upravleniye i organizatsiya v sfere uslug: teoriya i praktika: Service Management and Operation – 2-e mejdunarod. izd. (per. s angl. pod nauch. red. V.V.Kulibanovoy) / K.X.Xaksever, B.R.Render, R.S.Rassel, R.G.Merdik.-SPb, 2002.-751 s.; Erenberg R.D., Smit R.S. Sovremennaya ekonomika truda. Teoriya i gosudarstvennaya politika/ Per. s angl.-M., 1996, 34-b.

oshirish masalalari xorijlik olimlar jumladan: Ye.F.Avdokushin, T.D.Burmenko, V.G.Basareva, A.A.Bachurin, A.V.Gribovskiy, S.A.Zaichenko, N.I.Oksanich, A.M.Murtazaliyeva⁴ lar tomonidan o'rganilgan. Ushbu muammolarni o'rganishga O'zbekistonlik olimlardan M.Q.Pardayev, M.Salayev., M.E.Po'latov, G.Q.Abdurahmonova, Q.J.Mirzayev, K.B.Urozov, M.M.Muxammedov, D.R.Zaynalov, I.S.Tuxliyev, S.N.Tashnazarov, M.T.Alimova, Sh.O.Kuvandikov⁵ va boshqalarning ilmiy ishlari bag'ishlangan.

Ammo, yuqorida keltirilgan olimlarning asarlarida xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes faoliyatini rivojlantirishning ayrim jihatlari o'rganilgan. Shuningdek, xizmat ko'rsatish kichik korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish masalalari kompleks tadqiqot sifatida qisman o'z aksini topgan. Hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes korxonalarini innovatsion rivojlantirish va samaradorligini oshirish bilan bog'liq tadqiqotlar yetarli darajada o'rganilmaganligi, ushbu mavzuda chuqur ilmiy-uslubiy izlanishlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohaslarini samarali rivojlantirishning innovatsion usullari" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes korxonalarini innovatsion rivojlantirish va samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

⁴ Avdokushin Ye.F. i dr. Novaya ekonomika: monografiya/Pod red. Ye.F.Avdokushina, B.C. Sizova. - M.: Magistr. - 2009. - 542 s.; Burmenko T. D. Sfera uslug: ekonomika: uchebnoye posobiye/T.D. Burmenko, N.N. Danilenko, T. A. Turenko; pod red. T.D. Burmenko. - M.: KNORUS, 2007. - S. 661; Basareva V.G. Мaлы́й бизнеc: региональные аспекты механизмов государственного регулирования / V.G. Basareva // Poisk. Problemy. Resheniya. 2010. № 11. S. 55-62; Bachurin A.A. Zarubejnyy opyt regulirovaniya razvitiya predprinimatelskoy deyatel'nosti / L.G.Chervova, A.A. Bachurin//Vestnik Instituta ekonomicheskix issledovaniy, 2017. - №3(42) - S. 26-31; Gribovskiy A.V. Mexanizmy gosudarstvennoy podderjki malogo innovatsionnogo biznesa za rubejom / A.V. Gribovskiy, S. Ye.Ushakova//Nauka. Innovatsii. Obrazovaniye. - 2014. - №16.- S. 209-210; Zaichenko S.A. Razvitiye innovatsiy v sfere uslug // Forsayt. 2007. - № 1. - S. 30-33; Murtazaliyeva A.M. Preimushstva malogo biznesa / A.M. Murtazaliyeva // Voprosy strukturizatsii ekonomiki. - 2015. - №2. - S. 13-15; Oksanich N.I. Мaлы́й бизнеc v APK: tendensii i problemy razvitiya. Monografiya / N.I.Oksanich, A.S.Cherkashina. - M.: VNIETUSX, 2008 g. - S. 11.

⁵ M.Қ.Пардаев. Инсон салоҳияти, инсон капитали ва инновация билан боғлиқ категорияларнинг назарий масалалари. Монография.-Т.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2024. 204 бет.; Salaev S.K. Kichik biznes rivojlanish tendensiyalarini modellashtirish va bashoratlash. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. -Т.: 2007.-14 b; Abdurahmonova G.Q. Kichik biznesda aholini ish bilan ta'minlash. Monografiya.-Т.: Iqtisodiyot, 2014; Po'latov M.E. va boshqalar Global iqtisodiy rivojlanish (turizm iqtisodiyoti).O'quv qo'llanma.T.: Fan va texnologiya, 2018. - 296 b.; Қ.Ж.Мирзаев. Инновацион иқтисодиётни ривожлантириш масалалари: монография, - Самарқанд.: - STEP-SEL МЧЖ. нашриёти, 2024 - 206 бет. М.М.Мухаммедов ва бошқ. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. - Т.: - Фан ва технология, 2018, 125-бет.; К.Уразов. Совершенствование бухгалтерского учета на торговых предприятиях. //Экономическое развитие и анализ, 2025 3(5), 211–221.; Ж.Р.Зайналов Услуги и сервис как экономическая категория. // «Сервис» журналы. Самарқанд: 2009, 1-сон. 70-77 бетлар. - 0,6 б.т.; Тухлиев И.С. ва б. Хизмат кўрсатиш соҳасида тадбиркорлик фаолиятининг асосий йўналишлари. «Сервис» илмий-амалий журналы, 2012 йил, 4-сон. - 43-48 б.; Ташназаров С.Н. Молиявий бухгалтерия ҳисоби 1: дарслик/Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти - Самарқанд.: "STEP-SEL" МЧЖ нашриёти, 2023 - 580 б.; Алимова М.Т. Худудий туризм бозорининг ривожланиш хусусиятлари ва тенденциялари (Самарқанд вилояти мисолида). Докторлик диссертацияси автореферати. Самарқанд, 2017 й.; Sh.O.Kuvandikov. Xizmat ko'rsatish sohasida oilaviy tadbirkorlik [Matn]: monografiya / SamISI - Samarqand.: "STEP-SEL" MCHJ. Nashriyoti, 2023 - 276 бет.

Tadqiqotning vazifalari:

xizmatlar sohasini rivojlantirishda kichik biznesning ahamiyati va innovatsion rivojlantirishning muhim xususiyatlari tahlil etish;

xizmatlar sohasida kichik biznes korxonalarida innovatsion samaradolik ko'rsatkichlari va uni baholash uslubiyo'linini asoslash;

xizmatlar sohasida kichik biznes korxonalarini innovatsion rivojlantirishning xorijiy tajribasi va undan respublikamizda foydalanish imkoniyatlarini tadqiq etish;

xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznesni innovatsion asosda rivojlantirishning institutsional asoslari va dinamikasi tahlil etish;

xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznesni innovatsion rivojlantirishda xizmatlar bozorini shakllantirishning asoslari tadqiq etish;

innovatsion asosda kichik biznesni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar va ulardan foydalanishni tadqiq etish;

raqamli texnologiyalar asosida xizmatlar sohasida kichik biznesni innovatsion rivojlantirish yo'llari asoslash;

xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznesni innovatsion rivojlantirishni davlat tamonidan qo'llab-quvvatlash yo'nalishlarini ishlab chiqish va mexanizmlarini takomillashtirishni asoslash;

xizmatlar sohasida kichik biznesni rivojlantirishning ekonometrik modellashtirish usullari asosida prognoz parametrlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Samarqand viloyati xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari olingan.

Tadqiqot predmeti bo'lib, iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirish va samaradorligini oshirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tizimli tahlil, guruhlash, induksiya va deduksiya, statistik va solishtirma tahlil, ekspert baholash, regression-korrelyatsion tahlil, iqtisodiy modellashtirish va prognozlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra, "xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes korxonalarini innovatsion samaradorligi" tushunchasining iqtisodiy mazmuni yangi xizmatlar va raqamli yechimlarni joriy etish orqali innovatsion rivojlanishni ta'minlash hamda qo'shimcha qiymatni yaratish darajasini ifodalovchi mehnat unumdorligi, fondlar qaytimi, rentabellik, qo'shilgan qiymat va innovatsion faollik kabi o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar tizimining natijadorligini baholash jihatidan takomillashtirilgan;

hududlarda xizmat ko'rsatish sohasi kichik biznes korxonalarining innovatsion rivojlanish va samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni asoslash hamda innovatsion rivojlanish darajasiga bevosita ($M_n = 0,64$) va bilvosita ($K_n = 0,36$) omillar ta'sirini hisobga olgan holda ($L_n(1,0) = M_n + K_n = 0,64 + 0,36$) rivojlanishning muvozanatli jarayoni takomillashtirilgan;

hududlarda raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida xizmatlar sohasida kichik biznesni innovatsion rivojlantirishda "5 qadam raqamli modeli" hamda "Kichik biznes korxonalarini raqamlashtirish platformasi"ni joriy etilishi bo'yicha xizmat ko'rsatish sohasini innovatsion rivojlantirish va samaradorligini oshirish imkoniyatlari asoslangan;

respublika hududlari xususiyatidan kelib chiqib, xizmat ko'rsatish kichik biznesni innovatsion rivojlantirishda iqtisodiy matematik usullardan, jumladan Holt-Winters usulidan foydalanilgan holdan 2028-yilgacha kichik biznes subyektlarini xizmatlar hajmini oshirishning prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xizmatlar sohasini rivojlantirishda kichik biznesning ahamiyati va innovatsion rivojlantirishning muhim xususiyatlarini tadqiq etish orqali korxonalarda innovatsion samaradorlik ko'rsatkichlari va uni baholash uslubiyati asoslangan;

xizmatlar sohasida kichik biznes korxonalarini innovatsion rivojlantirishning xorijiy tajribasi va undan respublikada foydalanish imkoniyatlari ochib berilgan;

xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznesni innovatsion rivojlantirishning institusional asoslari va dinamikasi tahlil qilish orqali xizmatlar bozorini shakllantirish asoslari tadqiq etilgan;

xizmatlar sohasida kichik biznesni innovatsion rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va uning hududiy tashkilotlarining statistik ma'lumotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va tavsiyalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznesni rivojlantirish, sohada kichik korxonalar faoliyati samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish, kichik xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatini istiqbollashtirish hamda xizmat ko'rsatish jarayonlarini boshqarish yo'nalishlarida ilmiy apparatni boyitish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati taklif va tavsiyalardan xizmat ko'rsatish sohasida kichik korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish, kichik korxonalarda resurslardan samarali foydalanish, kichik korxonalarning innovatsion faolligini oshirish, sohaga oid me'yoriy hujjatlarni tayyorlash, shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasini samarali rivojlantirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda hamda "Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish", "Innovatsion iqtisodiyot", "Xizmat ko'rsatish iqtisodiyoti" fanlari bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish, darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xizmat ko'rsatish sohasida kichik korxonalarni innovatsion rivojlantirish va samaradorligini oshirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra xizmat ko'rsatish sohasida yuqori samaradorlik hamda daromad olish imkoniyatini yaratuvchi "xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes korxonalari innovatsion samaradorligi" tushunchasining iqtisodiy mazmuni yangi xizmatlar va raqamli yechimlarni joriy etish orqali innovatsion rivojlanishni ta'minlash hamda qo'shimcha qiymatni yaratish darajasini ifodalovchi mehnat unumdorligi, fondlar qaytimi, rentabellik, qo'shilgan qiymat va innovatsion faollik kabi o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar tizimining natijadorligini baholash jihatidan

takomillashtirish bilan bog'liq nazariy-uslubiy ishlanmalardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 10-noyabrdagi 4-sonli buyrug'i hamda Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Kengashining 2023-yil 10-noyabrdagi 4-sonli qarori). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes korxonalarini innovatsion rivojlantirish va samaradorligini oshirish bo'yicha nazariy bilimlar kengayib, soha samaradorligini oshirish imkoni yaratilgan;

hududlarda xizmat ko'rsatish sohasi kichik biznes korxonalarining innovatsion rivojlanish va samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni asoslash hamda innovatsion rivojlanish darajasiga bevosita ($M_n = 0,64$) va bilvosita ($K_n = 0,36$) omillar ta'sirini hisobga olgan holda ($L_n(1,0) = M_n + K_n = 0,64 + 0,36$) rivojlanishning muvozanatli jarayonini takomillashtirish bo'yicha taklifi O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi faoliyatiga joriy etilgan. (O'zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 30-maydagi №04-07-27-5780-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifdan foydalanish natijasida xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes korxonalarini innovatsion samaradorligini oshirishga omillar ta'sirini ekspert baholash natijalaridan foydalangan holda baholash imkoni yaratilgan. Natijada, xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes korxonalarini innovatsion rivojlantirishga omillar ta'sirini ekspert baholash natijalaridan foydalanib, kichik biznes korxonalarida qo'shimcha innovatsion samaradorlikni oshishi asoslangan;

hududlarda raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida xizmatlar sohasida kichik biznesni innovatsion rivojlantirishda "5 qadam raqamli modeli" hamda "Kichik biznes korxonalarini raqamlashtirish platformasi"ni joriy etilishi bo'yicha xizmat ko'rsatish sohasini innovatsion rivojlantirish va samaradorligini oshirish taklifi Savdo-sanoat palatasi faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 30-maydagi №04-07-27-5780-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifdan foydalanish Samarqand viloyati hudud xususiyatini hisobga olgan holda xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik biznes korxonalarida raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish hisobiga kichik biznes korxonalarining innovatsion rivojlanish darajasini 4–5 foizga oshirish imkoniyatini asoslangan.

respublika hududlari xususiyatidan kelib chiqib, xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznesni innovatsion rivojlantirishda iqtisodiy matematik usullardan, jumladan Holt-Winters usulidan foydalanilgan holdan 2028-yilgacha kichik biznes subyektlarini xizmatlar hajmini oshirishning prognoz parametrlari taklifi Savdo-sanoat palatasi faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 30-maydagi №04-07-27-5780-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifdan foydalanish natijasida kelajakda kichik biznes korxonalarida tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar xajmining o'sish prognoz parametrlari ko'rsatib berilib, soha taraqqiyoti bo'yicha istiqbolli dasturlarni amalga oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish imkonini yaratgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan respublika miqyosida 3 ta va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hamji 144 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Respublikada xizmat ko'rsatish sohasini kichik biznes asosida innovatsion rivojlantirishning nazariy asoslari”**ga bag'ishlangan. Ushbu bobda xizmatlar sohasini rivojlantirishda kichik biznesning ahamiyati va uning innovatsion rivojlantirishdagi muhim xususiyatlari, xizmat ko'rsatishda kichik biznes korxonari samaradorligi va uni baholash metodologiyasi, xizmatlar sohasida kichik biznesni rivojlantirishning xorijiy tajribasi va undan respublikamizda foydalanish imkoniyatlari bo'yicha ilmiy yondoshuvlar asoslangan.

Respublikamizda xizmatlar ko'rsatish sohasini tizimli va innovatsion rivojlantirishda kichik biznes alohida ahamiyatga ega bo'lib, soha taraqqiyotini muhim harakatlantiruvchisi sifatida chuqur tadqiq etishni taqozo etadi.

Tadqiqot ishida “kichik biznes” tushunchasining mohiyati ochib berilib, unga ko'ra kichik biznes ma'lum bir o'rnatilgan (katta bo'lmagan) xajmi va shakliga ko'ra, belgilangan me'yorga asoslangan holda foyda olish va uni ko'paytirishni amalga oshiradigan tadbirkorlik faoliyatidan iboratdir.

Xizmatlar ko'rsatish sohasida kichik biznes - bu xizmatlar ko'rsatish jarayonida foyda olish maqsadida iste'molchilar ehtiyojiga mos xizmat taqdim etadigan nisbatan kichik ulushga ega bo'lgan kichik biznes subyektlari faoliyatidan iborat. Xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes korxonalarini innovatsion rivojlantirish deyilganda - foyda olish va uni ko'paytirishda ilm-fanning oxirgi yutuqlaridan yuqori ilmiy goyalarga asoslangan texnologiyadan foydalangan holda katta bo'lmagan hajmdagi xizmat ko'rsatishni amalga oshiruvchi kichik subyektlar (korxonalar) faoliyati tushiniladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes korxonalarini innovatsion rivojlantirish quyidagilarda namayon bo'ladi:

birinchidan, xizmat ko'rsatish sohasini samarali rivojlantirish usuli kichik biznes korxonalarini egalariga muhim investorlarni tezroq, ko'proq yangi g'oyalari, yangiliklarini (innovatsiyalarni) kiritishda;


ikkinchidan, xizmat ko'rsatish sohasini kam moliyaviy mablag' hamda resurs hisobiga kichik biznes korxonalarida yangi texnologiyalarga asoslangan va innovatsion samaradorligini oshirishini ta'minlashda;

uchinchidan, xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes korxonalarida ilmfanning oxirgi yutuqlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirishda;

to'rtinchidan, xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes korxonalarini rivojlantirish natijasida innovatsion taraqqiyotni ta'minlab, aholi daromadlarini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, turmush sharoitlarini yaxshilash imkoniyatlarini yaratish bilan belgilanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Respublikamizda xizmat ko'rsatish sohasini jadal innovatsion rivojlantirish imkoniyatini yaratuvchi kichik biznes korxonalari faoliyatini samarali amalga oshirish uchun uning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy asoslanildi (1-rasm).

Bunday xususiyatlar quyidagilardan iborat:



1-rasm. Xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznesni innovatsion rivojlantirish xususiyatlari⁶

Tadqiqot natijasiga ko'ra, xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes korxonalarining innovatsion samaradorligini baholashda asosiy mezonlaridan foydalanish muhim hisoblanadi. Shunday ekan, xizmat ko'rsatishda kichik biznes korxonalarining innovatsion samaradorligini asosiy mezonlari sifatida aholi bandligini ta'minlash va yangi ish o'rinlarini yaratish, iste'molchilarning innovatsion hamda sifatli xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, yangi xizmat turlarini joriy etish, moliyaviy natijadorlik va rentabellikni oshirish, raqamli texnologiyalar hamda innovatsiyalar asosida xarajatlar samaradorligini ta'minlash, mehnat unumdorligi va raqobatbardoshlikni oshirish kabilar alohida o'rganildi.

⁶ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

Mazkur mezonlar asosida kichik biznesning xizmat ko'rsatish sohasidagi raqobatbardoshligi ta'minlanib, barqaror o'sish imkoniyati yaratiladi hamda sohada kichik biznes korxonalarining umumiy natijadorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib, xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes korxonalari innovatsion samaradorligi deyilganda - yangi xizmatlar va raqamli yechimlarni joriy etish orqali innovatsion rivojlanishni ta'minlash hamda qo'shimcha qiymatni yaratish darajasini ifodalovchi mehnat unumdorligi, fondlar qaytimi, rentabellik, qo'shilgan qiymat va innovatsion faollik kabi o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar tizimining iqtisodiy natijadorligi tushuniladi.

Tadqiqot ishida xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes korxonalarini innovatsion samaradorligini ifodalovchi quyidagi ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval.

Xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes korxonalarini innovatsion samaradorlik ko'rsatkichlari⁷

Ko'rsatkichlar	Aniqlanish tartibi	Mazmuni
1. Xizmatlar sohasida kichik biznes korxonalarining innovatsion samaradorligi (S_{xkbb})	$S_{xkbb} = \frac{D_{xkbb}}{X_{xkbb}}$ D_{xkbb} - kichik biznes xizmat ko'rsatish korxonalari innovatsion faoliyatidan olingan daromad, mln.so'm X_{xkbb} - kichik biznes xizmat ko'rsatish korxonalari innovatsion faoliyati bo'yicha jami xarajatlar, mln.so'm.	Xizmat ko'rsatishda kichik biznes korxonalarining innovatsion samaradorligini ifodalaydi
2. Xizmatlar sohasida kichik biznes korxonalarida innovatsion rivojlanishda fondlar samaradorligi ($S\Phi_{xkbb}$)	$S\Phi_{xkbb} = \frac{F_{xkbb}}{\sum A\Phi_{xkbb} + \sum O\Phi_{xkbb}}$ F_{xkbb} - kichik biznes xizmat ko'rsatish korxonalari innovatsion faoliyatidan olingan foyda, mln.so'm; $\sum A\Phi_{xkbb}$ - kichik biznes xizmat ko'rsatish korxonalari innovatsion faoliyatiga yo'naltirilgan asosiy fondlarining umumiy qiymati, mln.so'm; $\sum O\Phi_{xkbb}$ - kichik biznes xizmat ko'rsatish korxonalari innovatsion faoliyatiga yo'naltirilgan aylanma fondlarining umumiy qiymati, mln.so'm.	Xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes korxonalarini innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan fondlar samaradorligini ifodalaydi
3. Xizmatlar sohasida kichik biznes korxonalarini innovatsion faoliyat bilan band bo'lganlarni mehnat unumdorligi (MY_{xkbb})	$MY_{xkbb} = \frac{D_{xkbb}}{K_{xkbb} \text{ (xodimlar soni)}}$ D_{xkbb} - kichik biznes xizmat ko'rsatish korxonalari innovatsion faoliyatidan olingan daromad, mln.so'm $K_{xkbb} \text{ (xodimlar soni)}$ - kichik biznes xizmat ko'rsatish korxonalari innovatsion faoliyati bilan band bo'lgan xodimlar soni, kishi	Xizmatlar sohasida kichik biznes korxonalarini innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan mehnat unumdorligini ifodalaydi
4. Xizmatlar sohasida kichik biznes korxonalarining innovatsion faoliyat rentabelligi (R_{xkbb}), %	$R_{xkbb} = \frac{F_{xkbb}}{X_{xkbb}} \times 100\%$	Xizmatlar sohasida kichik biznes korxonalarida (sarflagan har bir innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan so'mdan qancha foyda keltirishini ko'rsatadi) rentabellik darajasini ifodalaydi

Tadqiqot ishida xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes korxonalarining innovatsion samaradorligini aniqlashda ekspert baholash usuliga asoslangan holda

⁷ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes korxonalarida innovatsion faoliyatdan olingan foydaning indeks qiymatlari aniqlanadi. Hisoblash natijalariga ko'ra, xizmat ko'rsatishda kichik biznes korxonalaridan innovatsion asosda olingan foyda 3 xil darajada - minimal (0-0,55), o'rtacha (0,56-0,85) va maksimal (yaxshi) (0,86-1,00) darajasini baholash taklif etildi.

Kichik biznes, ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari sonini o'sishi, yangi ish o'rinlari yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada dunyodagi rivojlangan davlatlar tajribasi alohida ahamiyatga ega bo'lib, jumladan AQSH, Yevropa Ittifoqi a'zo davlatlari, Yaponiya, Janubiy Koreya va Singapur kabi mamlakatlarning tajribalarini O'zbekiston amaliyotiga joriy etish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, Yevropa Ittifoqi davlatlarida xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznesni rivojlantirish uchun turli manbalar orqali (grantlar, subsidiyalar) moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash tizimini yo'lga qo'yish xizmatlar sohasidagi kichik biznesga barqaror investitsiyalarga asoslangan kapitalni kiritish imkonini yuzaga keltiradi.

Shuningdek, AQSh tajribasiga asosan, mavjud bo'lgan Small Business Administration (SBA) krediti va mikroloyihalari dasturlari orqali kichik bizneslarga moliyaviy resurslarni to'g'ridan-to'g'ri (to'siqlarsiz) oson kiritish imkonini yaratiladi. Bu esa O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznesni innovatsion rivojlantirish uchun kichik biznes subyektlariga ko'proq va tezroq moliyaviy resurslarni kiritish imkonini yaratadi.


Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Xizmatlar sohasida kichik biznesni innovatsion rivojlantirishning hozirgi holati tahlili va taraqqiyot tendentsiyalari”**ga bag'ishlangan. Mazkur bobda xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznesni innovatsion asosda rivojlantirishning institutsional asoslari va dinamikasi, xizmat ko'rsatishda kichik biznesni innovatsion rivojlantirishda xizmatlar bozorni shakllantirishning asoslari, xizmatlar sohasida kichik biznesni innovatsion rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar va ulardan foydalanish masalalari o'rganilib, taklif va tavsiyalar berilgan.

Tadqiqot ishida xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes faoliyatini innovatsion asosda rivojlantirishning institutsional xususiyatlarni o'rganilgan bo'lib, unga ko'ra, respublikamizda soha taraqqiyotini ta'minlovchi me'yoriy-huquqiy normativ hujjatlari tahlil qilingan hamda taraqqiyot bosqichlari asoslangan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, respublikamizda soha taraqqiyotida muhim me'yoriy-huquqiy xujjatlar sifatida 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2022-yil 27-yanvardagi PQ-104-son “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”, 2023-yil 16-sentabrdagi PQ-306-son “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida”, 2024-yil 7-sentabrdagi PQ-312-son “Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash” kompleks dasturini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorlari yangi iqtisodiy imkoniyatlarni ochib beradi.

Dissertatsiya natijalariga ko'ra, respublikamizda 2020-2024-yillarda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi hajman va sifat

jihatdan barqaror o'sdi. Bu, bir tomondan, iqtisodiy faollikning oshganini, boshqa tomondan, xizmatlar sohasida kichik biznesning yetakchi rol o'ynashini ko'rsatadi. Tahlil natijalariga ko'ra, 2020-yilda kichik biznes subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 114,1 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 466,4 mlrd.so'mni tashkil etgan (2-rasm).



2-rasm. Respublikada 2020-2024-yillarda xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes subyektlari ko'rsatgan xizmatlar hajmi (mlrd.so'm)⁸

Dissertatsiyada o'tkazilgan tahlil natijalarga ko'ra respublikamizda xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznesni YaIMda ulushini pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan tahlil natijalariga ko'ra 2018-yilda kichik biznes subyektlarining jami YaIMdagi ulushi 64,3 % tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 54,3 % pasaygan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xizmat ko'rsatishda kichik biznes ulushini batafsil o'rganish uchun respublikamiz viloyatlari bo'yicha ma'lumotlar tahlili amalga oshirildi. Tahlil natijalriga ko'ra, hududlar kesimida ham eng yuqori ko'rsatkichni 2018-yilda Namangan 82 % tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 74,3 % tushish dinamikasini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birgalikda eng past ko'rsatkichni 2018-yilda Qoraqolpog'iston Respublikasi 64,3 % tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 64,6 % bo'lib, deyarli o'zgarmaganligi aniqlangan.

Shuningdek, tadqiqot ishida tadqiqot obyekti Samarqand viloyatidagi xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes subyektlarining yalpi hududiy mahsulotdagi xizmatlar ulushining tahlili shuni ko'rsatadiki, viloyatdagi xizmat ko'rsatish sohasi kichik biznes korxonalari hajmi ulushi kamayish tendensiyasiga ega (2-jadval).

⁸ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qumitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

**Samarqand viloyatida xizmatlar ko'rsatish sohasi korxonalarida kichik
biznes hajmi ulushining o'zgarish dinamikasi (2020-2024-yillar)⁹**

T/r	Viloyat tumanlari bo'yicha	2020- yil	2021- yil	2022- yil	2023- yil	2024- yil	2024-yilda 2020 yilga nisbatan o'zgarishi, (+;-) foizda
1.	Viloyat bo'yicha	68,9	69,1	68,0	66,0	65,0	-3,9
2.	Samarqand sh	49,5	49,4	48,4	48,8	49,8	0,3
3.	Kattaqo'rg'on sh	84,4	84,7	81,9	84,4	67,4	-17
	tumanlar:						
4.	Bulung'ur	77,0	75,9	75,8	75,9	76,6	-0,4
5.	Jomboy	75,7	84,6	83,7	82,4	81,9	6,2
6.	Ishtixon	82,5	84,3	84,5	84,0	81,3	-1,2
7.	Kattaqo'rg'on t.	83,1	83,7	83,8	81,6	84,4	1,3
8.	Narpay	85,3	86,5	86,4	85,3	84,2	-1,1
9.	Nurobod	80,0	82,1	81,2	81,0	80,1	0,1
10.	Oqdaryo	86,8	87,5	85,9	84,1	80,9	-5,9
11.	Payariq	81,8	84,1	84,1	83,9	70,4	-11,4
12.	Pastdarg'om	79,0	79,0	79,7	80,7	70,2	-8,8
13.	Paxtachi	74,4	77,3	76,3	74,8	79,3	4,9
14.	Samarqand t	89,9	90,2	90,0	75,2	74,3	-15,6
15.	Toyloq	89,3	81,6	79,0	70,7	78,5	-10,8
16.	Urgut	77,9	79,5	78,0	74,9	68,1	-9,8
17.	Qo'shrabot	82,0	86,4	85,6	84,3	85,3	3,3

Tahlil natijalariga ko'ra, jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Samarqand viloyatida 2020-yilda xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarida kichik biznesning ulushi 68,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilda pasayib 65 foizdan iborat bo'lgan. Bunga sabab tahlil jarayonidan ko'rinib turibdiki, Samarqand shahridagi kichik biznes korxonalarining xizmat ko'rsatishdagi ulushi 2024-yilda ancha past ko'rsatkichni, ya'ni 49,8 foizdan iborat bo'lgani holda, viloyat tumanlarida bu ko'rsatgich ancha yuqori bo'lgan, ya'ni Oqdaryo tumanida 80,9 foiz, Jomboy tumanida 81,9 foiz, Ishtixon tumanida 81,3 foizni tashkil etgan.

Xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes subyektlari faoliyatini tarkibiy qismlarga ajratgan holda tadqiq etilishi shuni ko'rsatadiki kichik biznes subyektlari faoliyatini yanada rivojlantirish uchun soha faoliyatiga innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishni taqozo etadi.

Tadqiqot ishida xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik biznes subyektlari faoliyat yo'nalishlariga mos samaradorlik natijalari tadqiq etildi. Ushbu natijani quyidagi jadval orqali ko'rishimiz mumkin (3-jadval).

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Samarqand viloyati Samarqand shahridagi xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik biznes subektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlari holati 11 ta kichik biznes korxonasi misolida tahlil qilingan. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, 2024-yilda xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan turli kichik biznes

⁹ Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

subyektlar tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar hajmi qiymati faoliyat yo'nalsihlariga mos ravishda yuqori natijadorligiga erishilgan.

3-jadval.

Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasi yo'nalishlari bo'yicha kichik biznes subyektlarini samaradorligi (2024-yil)¹⁰

№	Korxona nomi	Soha yo'nalishlari	Ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, (mln. so'm)	Xodim-lar soni (kishi)	Bir xodimga to'g'ri keladigan xizmat hajmi, natijadorligi, mln.so'm
1.	"SAM BAGIR LUX" MCHJ	Umumiy ovqatlanish	5043,0	10	504,3
2.	"Madinabonu milliy taomlari" MchJ	Umumiy ovqatlanish	578,5	9	64,3
3.	"Maroqand avto daryo trans' mas'uliyati cheklangan jamiyat	Logistika (Taksi xizmati)	106,7	10	10,7
4.	"Mirvoxid mobil servis" xususiy korxona	Buxgalteriya xizmatlari	118,2	8	14,8
5.	"Belissimo premium" mas'uliyati cheklangan jamiyat	Xizmat ko'rsatish	4121,2	10	412,1
6.	"Sunshine travel" mas'uliyati cheklangan jamiyat	Turizm yo'nalishida xizmat ko'rsatish	127,7	9	14,2
7.	"Aziya medik neo" mas'uliyati cheklangan jamiyat	Tibbiy xizmat ko'rsatish	3156,9	10	315,7
8.	"Alexander hotel" mas'uliyati cheklangan jamiyat	Mehmonxona xizmat ko'rsatish	2219,89	8	277,5
9.	"Shashlik uz" XK	Umumiy ovqatlanish	37092,18	21	1766,3
10.	"Turist uyut servis" MCHJ	Turizm yo'nalishida xizmat ko'rsatish	110	6	18,3
11.	"Muzrobjon universal xizmati" MCHJ	Xizmat ko'rsatish	577,7	7	82,5


Hisob-kitoblarga ko'ra Samarqand shahridagi faoliyati umumiy ovqatlanishga yo'naltirilgan "SAM BAGIR LUX" MCHJ kichik biznes subyekti iqtisodiy natijadorligi boshqa xizmat ko'rsatish yo'nalishlariga nisbatan yuqori bo'lgan (10 ta xodim faoliyat yuritgan holda xizmat ko'rsatish natijaviy ko'rsatkichi 504,3 mln.so'm bo'lgan bo'lsa, "Shashlik.uz" XK 21 ta xodim xizmat ko'rsatib, 1 mln 766 ming so'mlik xizmat natijadorligiga erishgan).

Xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatyotgan kichik biznes subyektlarini innovatsion asosda rivojlantirishga bevosita va bilvosita omillar ta'siri muhim hisoblanadi. Bunda bevosita omillar bo'yicha sohada xarajatlarni kamaytirishni ta'minlovchi innovatsiyaga yo'naltirilgan va kichik biznesni innovatsion rivojlantirishda yuqori daromad (foyda) olishni ta'minlovchi omillar hamda sohaga kiritiladigan daromad keltiradigan investitsiya omillari ta'siri yuqori bo'lsa, bilvosita omillar sifatida esa xizmatlar sohasida kichik biznesni innovatsion tashkil etish bo'yicha malakali kadrlarni tayyorlash, kichik bisnes tomonidan amalga

¹⁰ Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

oshiriladigan innovatsion xizmatlar uchun mijozlar ehtiyojini o'rganish va kichik biznesni innovatsion rivojlantirish uchun moliyaviy-iqtisodiy shart-sharoit yaratish kabilar ta'siri ustuvor hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, tadqiqot ishida xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes korxonalarida innovatsion rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar ekspert baholash usulidan foydalangan holda aniqlanilib, bunda innovatsion rivojlanishga ta'sir darajasi mazkur usul natijalariga asoslangan holda, bevosita ($M_n = 0,64$) hamda bilvosita ($K_n = 0,36$) omillar ta'siri hisoblanildi. Ushbu ekspert xulosasi natijasiga asoslangan xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes korxonalarini samaradorligini innovatsion asosida rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar imkoniyati aniqlangan ($L_n(1,0) = M_n + K_n = 0,64 + 0,36$). Bunda bevosita omillar ta'siri 64 % ni, ($M_n = 0,64$) hamda bilvosita omillar esa 36 % ($K_n = 0,36$) dan iborat bo'lgan (3-rasm).



3-rasm. Xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes korxonalarini innovatsion rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar¹¹.

Natijada, ekspertlar xulosasiga ko'ra, xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes korxonalarini innovatsion samaradorligi qo'shimcha o'sishiga erishiladi.

Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik biznes subyektlarini innovatsion rivojlantirishga omillar ta'siri zanjirli tahlil¹² usulidan foydalanilib monografik tadqiqotlar asosida hisoblanildi. Bunda hisob-kitoblarga ko'ra, "SAM BAGIR LUX" MCHJ kichik biznes korxonasini 2023-2024-yillardagi ma'lumotlaridan foydalangan holda quyidagi natijalar olindi (4-jadval).

¹¹ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

¹² Пардаев М.Қ., Холиқулов А.Н. Иқтисодиёт субъектларида омилли таҳлилни такомиллаштириш. Монография. Т.: Наврўз нашриёти. 2014 й. 64-108 бетлар.

4-jadval.

Samarqand viloyatidagi “SAM BAGIR LUX” MChJ xizmat ko‘rsatish kichik biznes korxonasining 2023 va 2024-yildagi natijaviy ko‘rsatkichlari¹³

№	Ko‘rsatkichlar	2023-yil	2024-yil	Farqi (+,-)
1.	Xizmat ko‘rsatishdan olingan sof tushim (mln.sum)	4066,9	5043,0	+ 976,1
2.	Shu korxonalarda faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlar soni, X_s (kishi)	9	10	+ 1
3.	Har bir xodimga to‘g‘ri keladigan bir kunlik o‘rtacha tushum. T_{1x} (ming so‘m)	451,9	504,3	+52,4
4.	Hisobot davrida o‘rtacha ish kuni. O'_{ik}	330	325	-5

Ushbu jadval ma’lumotlaridan kelib chiqib, hisobot davrida shu korxonalarda faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlar soni 1 kishiga ko‘paygan. Har bir hodimga to‘g‘ri keladigan 1 kunlik o‘rtacha tushum 52,4 ming so‘mga oshgan. Ammo, hisobot davrida o‘rtacha ish kuni 5 kunga kamaygan. Oqibatda Samarqand viloyatidagi “SAM BAGIR LUX” (umumiy ovqatlanish) kichik korxonasining umumiy tushim so‘mmasi 2024 yilda 5043,0 mln.so‘mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 976,1 mln. so‘mga ko‘paygan (5-jadval).

5-jadval.

Samarqand viloyatidagi xizmat ko‘rsatish sohasidagi “SAM BAGIR LUX” MCHJ kichik biznes korxonasining umumiy daromadlar hajmi va umumiy tushumga omillar ta’sirini hisoblash tartibi¹⁴

№	Ko‘rsatkichlar	2023-yil	2024-yil	Zanjirli almashtirish		
				X_s	T_{1x}	O'_{ik}
1.	Shu korxonalarda faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlar soni, X_s (kishi)	9	10	10	10	9
2.	Xar bir xodimga to‘g‘ri keladigan bir kunlik o‘rtacha tushum. T_{1x} (mln. so‘m)	451,9	504,3	451,9	504,3	504,3
3.	Hisobot davrida o‘rtacha ish kuni. O'_{ik}	330	325	330	330	325
4.	Umumiy daromadlar hajmi. U_t (mln. so‘m)	1342,1	1638,9	1491,2	1664,2	1475,1

